

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING O'RNI

Z.Nizomova

Guluston davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *O'zbek xalqining taniqlin shoiri Muhammad Yusuf ijodida badiiy tasvir vositalarining mahorat bilan qo'llangani va ma'no ko'chishini ko'chishi shoir she'rlari asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *she'r, ibora, lirik qahramon, lirik kechinma, badiiy tasvir vositalari, obraz, obrazlilik, poetika, qahramon.*

Muhammad yusuf ijodida badiiy tasvir vositalarining o'rni katta. Ibora-ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng bo'ladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror bog'lanmalarning umumiy nomi. Iboralar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin qo'llash, tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki avvaldan tayyor material sifatida qo'llaniladi. Iboralar frazema atamasi bilan ham yuritiladi va ular bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limi-frazeologiya deyiladi. Frazeologik butunlik-frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi bilan izohlanadi. Masalan: "Tepa sochi tikka bo'lmoq" frazemasini yaxlit holda "g'azablanmoq" ma'nosini umumlashgan ko'chma ma'noni anglatadi.

Frazeologik chatishma – frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Masalan: "ikki qo'lini burniga tiqib" frazemasini "quruqdan quruq", "evaziga hech nimisa olmasdan" ma'nosini anglatadi.

Muhammad Yusuf yetuk so'z san'atkori sifatida iboralardan unumli foydalanib, voqelikni real ifodalash va o'quvchiga estetik ta'sir etish vazifalarini uyg'un tarzda amalga oshirishga erishgan. Hozir shulardan ba'zilarga yuzlansak. "singlimga maktub" nomli she'rida shoir lirik qahramon holatini ifodalashda "tosh ko'ngil" iborasidan foydalanadi.

Qachon xat yozgandim senga bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim,
Yolg'iz akang bo'lib,
Yoningda yurmayman,
Kechir meni, singlim,

Kechir meni singlim.

Bu misrada shoir “tosh ko‘ngil” iborasini yuqorida aytganimizdek, lirik qahramonning ichki kechinmalrni ifodalash maqsadida qo‘llagan.

Shoirning “Onamga xat she’ri orqali biz “ko‘ngil yozmoq” iborasiga duch kelamiz.

Men sizni o‘ylayaman shom-u saharda,

Ona soginsam ham ko‘ra olmayman.

Tunlari charog;on shunday shaharda,

Hech kimga ko‘nglimni yora olmayman.

Ushbu misrada shoir o‘z kechinmalarini mahurat bilan she’rga ko‘chirganki, lirik qahramon ko‘nglini dard shunday o‘rtasa ham ko‘nglini yorolmaydi, aytolmaydi. Bu yerda shoir metafora usulida ma’no ko‘chishni yuzaga keltirgan. Shoir she’rlarida iboralarni qo‘llar ekan, ularning shaklini o‘zgartirgan holda keltirilganini ham guvohi bo‘lamiz:

Dardin dilga ko‘chirmas shoir,

Shoir dardin yutishi mumkin.

Hech kimni zor kuttirmas shoir,

Shoir yuz yil kutishi mumkin.

Parchada “dardini ichiga yutmoq” iborasi dardni yutmoq, hech kimga ayutmasdan ichiga yutmoq tarzida qisrqartirilgan. Ushbu iborani biz metafora uslubida ma’no ko‘chishiga olishimiz mumkin, sababi harakat o‘xshashligini ifodalab kelgan. Muhammad Yusufning “Kapalaklar” she’rida ham bir muncha iboralar qo‘llangan. Ijodkor “bag‘rim qon” deya keltiradi bir misrada:

Tug‘ilgandan men sho‘rlikning bag‘ri qon,

Bir jismimda talashadi ikki jon.

Jon talashsam, tepada charx urgan ul,

Kapalaklar odamlardan mehribon.

She’rni o‘qir ekanmiz, undagi lirik qahramonning kapalaklarga bo‘lganm mehr-muhabbatini tuyishimiz ham mumkin. Shoir bu yerda ham “bag‘rim qon” deb metaforik usulda ma’no ko‘chishini ifodalaydi. Ushbu she’rning yana bir misrasiga diqqatimizni qaratamiz:

Oydin oqshom yodga tushding, o, malak,

Seni o‘ylab bo‘ldi yana qon yurak.

Sevaman deb aldamaydi kapalak,

Kapalaklar odamlardan mehribon.

Bu parchada shoir lirik qahramon yorini eslab “yuragim qon bo‘ldi” deya Fikr chekkanini go‘zal tarzda qofiya tuzgan. Bu jumlada ham metaforik usulda ma’no ko‘chishi hosil qilingan. Muhammad Yusuf asarlarida iborlarni umuman, barqaror birliklarni yoki shaklini o‘zgartirgan holda ham ifodalaydi.

Tahlillardan shu ma'lum bo'ldiki, shoir mohir so'z ustasi sifatida o'zbek tili imkoniyatlarini yaqqol ochib beruvchi frazeologik birliklarni no'z she'rlarida zukkolik qo'llaydi, shuningdek, o'zi ham tilda mavjud so'zlardan boshqa ijodkorlar asarlarida uchramaydigan obrazli iboralar yaratishga harakat qilgan holda ona tilining hech kimga ma'lum bo'lmagan imkoniyatlarini ishga solish qudratiga ega ekanligidan dalolat beradi. Muhammad Yusuf o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan yo'nalishda ijod qilgan. Asarlarda insonlarga murojaat qilish nihoyatda ko'p uchraydi. U o'ziga xos uslubga ega mukammal shoir, qalami o'tkir mahoratli ijodkor edi. Uning ijodiy mahorati she'riyatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mohir shoirning asar, doston, she'r va boshqa ijod namunalarida umumxalq tilida foydalaniladigan iboralarga murojaat qilishi ko'p uchraydi. Chunki, tahlil jarayonida iboralar ijodkorning dunyoning, ijtimoiy hayotning, jamiyatning nuqsonlari va yutuqlarini "ko'ra olish" qobiliyatini ochib bergan. Kimki, bugungi zamonda yuksak qadam tashlashni, o'zini anglashni istasa shoirning ijod namunalarini ko'zdan kechirsa, mulohaza qilib, o'rnak olsa shaxsiy fikr doirasi darajasini, insoniy qiymatini, o'zligini topib, belgilay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *H. Jamolxonov. Hozirtgi o'zbek adabiyoti. Toshkent – . Talqin. 2025.*
2. *Muhammad Yusuf. Saylanma, Sharq, 2001.*
3. *Xurshid Davron kutubxonasi – www.kh_davron.uz;*
4. *Ziyouz.com <https://ziyouz.com>> yangi kitoblar.ZN.UZ. <https://forishakm.zn.uz>.*